

**“Mikrokreditbank” ATBning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib  
chiqish natijalari haqidagi 2023 yilning 1 yarim yilligi uchun  
HISOBOT**

“Mikrokreditbank” ATB Korrupsiyaga qarshi nazorat departamentiga joriy yilning 1–2-choragi davomida jami jismoniy va yuridik shahslardan 34 murojaat kelib tushgan. Mazkur murojaatlar hududlar kesimida, yani: Samarqand viloyatida 5 ta Qashqadaryo viloyatida 9 ta Xorazm viloyatida 2 ta Andijon viloyatida 1 ta, Farg‘ona viloyatida 3 ta, Surxondaryo viloyatida 3 ta, Navoiy viloyatida 2 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 ta, Andijon viloyatida 1 ta, Toshkent viloyatida 1 ta, Namangan viloyatida 2 ta, Jizzax viloyatida 1 ta va Toshkent shahrida 2 ta.

Aloqa kanallariga korrupsion holat bo‘yicha kelib tushgan murojaatlar soni 3 ta: Surxondaryo viloyatida 1 ta, Jizzax viloyatida 2 ta holatda murojaatlar ijobiy xal qilingan.

Yuqoridagi holatlar bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilganda 3 ta holat yuzasidan Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilingan, qolgan 31 holatda fuqarolarga tegishliligi bo‘yicha o‘rganish natijalari ma‘lum qilingan va o‘rganish natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi ma‘lum qilingan.

Korrupsion holatlarni kamaytirish uchun Respublika bo‘ylab bir qator seminar tadbirlar tashkil etildi jumladan, birinchi va ikkinchi chorak oralig‘ida Bankning bosh ofisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, Sirdaryo, Toshkent, Qashqadaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida xodimlar o‘qitildi va tegishli bilim-ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi.

Shuningdek korrupsion holatlarga duch kelmaslik va uni barvaqt oldini olish maqsadida doimiy ravishda filiallarda ichki nazorat tadbirlari o‘tkazish maqsadida, bankning viloyat mintaqaviy filiallarida ICHKI-TRENERLAR tasdiqlanib onlayn shaklda reja-grafikga asosan o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazib kelinadi.

Bundan tashqari bankda xodimlarni individual o‘qitish va rivojlantirish uchun onlayn platforma tashkil etilgan bo‘lib, unda **“ANTIKORRUPSIYA 2023, BANKDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH”** mavzularida xodimlar viktorina, video darslar va testlar orqali o‘z bilimlarini oshirib borishdi.

**Korrupsiyaga qarshi nazorat  
departamenti direktori v.v.b**



**Toshpulatov.A**